

**NEMIS TILI DARSLARIDA IJTIMOIIY O'QUV SHAKLLARINI
MAQSADLI TADBIIQ ETISHDA KOMMUNIKATIV MASHQLAR**

Tolipova Shaxloxon Baxromjon qizi
O'qituvchi. Farg'ona davlat universiteti
shakhlo2608@mail.ru

Annotatsiya

Ushbu maqolada nemis tili darslarida ijtimoiy o'quv shakllarini maqsadli tadbiiq etishda kommunikativ mashq va topshiriqlarning turli xil tiplaridan samarali foydalanish, ularni dars jarayoniga to'g'ri tadbiiq etish tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: kommunikativ mashqlar, simulyativ mashqlar, ijtimoiy munosabat, ijtimoiy o'quv shakllari, Krumm jadvali.

Barchamizga ma'lumki, kommunikativ mashqlar va topshiriqlar haqiqiy muloqotga yo'naltiradigan mashqlarni tasniflaydi, ya'ni ular so'z erkinligini ta'minlaydi, o'quvchining o'zi nazoratsiz muloqot qila olishiga ko'mak berishiga xizmat qiladi, shuning uchun simulyativ va kommunikativ mashqlar o'rtasida nisbatan katta farq bor. O'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni faqatgina o'quvchi o'zi kabi gapirgandagina chinakam rivojlantirishi mumkin.

Ushbu mashq turlarini amalga oshirish usullari quyidagi misollarni o'z ichiga oladi:

- Dars o'tilishida o'zaro ijtimoiy munosabat (iltimos qilish, so'rash, asoslash, tekshirish);
- Suhbatga tayyorlovchi mashq va topshiriqlar;
- Matnni qabul qilishdan oldin va davomida gipotezalarni shakllantirish;
- Munozara.

Biroq, o'qituvchi o'quvchilarni sinfda bunday muloqotga qanday jalb qilishi mumkinligi borasida savol paydo bo'ladi. O'z navbatida, savolning javobini izohlashda professor olim Krummning jadvalidan foydalanish o'rindir, unda darsdan tashqari muloqot va sinfdagi muloqot o'rtasidagi farqlar tasvirlangan.

	Spontan darsdan tashqari muloqot	Dars jarayonidagi Muloqot
Joy/manzil	Erkin tanlangan O'zgaruvchan	Erkin tanlanmagan Sinf xonasi
Vaqt, boshlanish/tugash	Kelishuv asosida	Dars jadvali
Mavzu	Erkin tanlanadi yoki o'z fikrini bildiradi	O'quv rejasi, darslik, o'qituvchi
Hamkor	Erkin tanlanadi yoki o'z fikrini bildiradi	Erkin tanlanmagan, sinf

Motivatsiya	Yuqori	Past
Diqqat	Xabar, hamkor	Til shakli, o'qituvchi
Til	Asosan ona tili	Xorijiy til
Baholash	Yo'q	O'qituvchi tomonidan, muhim
Gapirish huquqi	Teng	O'qituvchi tomonidan tayinlangan
Tuzatish, so'zni bo'lish, rad etish huquqi	Taqsimlangan	Faqat o'qituvchi
So'zlovchi almashinuvi	Teng huquqli	Odatda o'qituvchi tomonidan tashkillanadi
Savol berish huquqi	Teng huquqli	O'qituvchilar, talabalar ro'yxatdan o'tishlari kerak
Javoblar	Teng huquqli	O'qituvchi: rad etish ham mumkin

(Krumm Schatz 2006: 163)

Jadvaldan ko'rishimiz mumkinki, tabiiylik va moslik, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi tenglik va sheriklik munosabatlari sinfda o'z-o'zidan, haqiqatga asoslangan muloqot uchun muhim ahamiyatga ega, bu sinfdan tashqaridagi haqiqiy muloqotga mos keladi. Agar o'qituvchilar sinfdagi muloqotning sun'iy elementlaridan qochmoqchi bo'lsalar, ularni ongli ravishda almashtirishni boshlashlari zarur. Ammo, bu jarayon oson emas, chunki muloqot qilish niyati va chet tilini bilish o'rtasida nomuvofiqlik mavjud. O'z-o'zidan, voqelikka asoslangan muloqotga erishish uchun birinchi navbatda, o'quvchilarda muloqot ko'nikmalarini bosqichma-bosqich shakllantirish kerak. Birinchi bosqich nemis tilidan chet tili darslari sifatida foydalanishda lingvistik tartiblarni (masalan, salomlashish, iltimos, rahmat, kechirim so'rash, xayrlashish) o'z ichiga olgan yordam shaklini taklif qilishdir. Mazkur jarayonni amalga oshirishning keyingi usullari sinfda nutq so'zlash uchun ko'plab so'z boyligini oshirishga qaratilgan mashq va topshiriqlarni darsga tadbiq etishdir, bunda turli xil tasvirlardan foydalanish mumkin, bu usuldan o'qituvchilar chet tilini endigina o'rganishni boshlagan til o'rganuvchilari uchun ham qo'llanilishi mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mashqlar kommunikativ topshiriqlarni o'zlashtirishga tayyorgarlik ko'rish uchun xizmat qilishiga yana bir bor ishonchimiz komil bo'ldi. Mashqlar shunday loyihalashtirilishi va ketma-ketligiga ijtimoiy o'quv shakllarida muntazam qo'llanilishida alohida e'tiborga olinishi kerakki, ular o'quvchilarga bosqichma-bosqich yordam bera olishi darkor va bu jarayonda til o'rganuvchilar mashqlarni ketma-ketlikda bajarishlari hamda topshiriqni muvaffaqiyatli bajarishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Katerina Edrova (2015): Die Förderung der Fertigkeit Sprechen im DaF-Unterricht, Brunn
2. Hermann Funk, Christina Kuhn, Dirk Skiba, Dorothea Spaniel-Weise, Reiner E. Wicke (2014): Aufgaben, Übungen, Interaktion. Klett- Langenscheidt, München
3. GROSSMANN, Simone (2011): mündliche und schriftliche Arbeitsanweisungen im Unterricht Deutsch als Fremdsprache, 83. Frankfurt a. M: Lang.
4. HATTIE, John (2011): Visible Learning for Teachers: Maximizing Impact on Learning. London, New York: Routledge.
5. HAYES, John R./ Flower, Linda S. (1980): Identifying the organization of writing processes. In: Gregg, L. W./Steinberg, E. R. (Hgg.) Cognitive Processes in Writing. Hillsdale: Erlbaum. S. 3-30.